

O'SMIRLIK DAVRIDA XULQ-ATVOR BUZULISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Kenjayeva Sevara Ro'zimboy qizi

Xorazm viloyati Gurlan tumani 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Bu ilmiy maqoladan maqsad o'smirlik davridagi jismoniy va psixik rivojlanishining umumiy xususiyatlari, jinsiy yetilish jarayoni, uning psixik rivojlanishiga ta'siri, o'smirlik davri inqirozi va uning psixik sabablari, o'smirlik davrida intellektual va shaxs rivojlanish xususiyatlari bo'yicha maqolani yangicha talqinda ochib berish. O'smirlik davrida o'z-o'ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari, ular ong va dunyo qarashining shakllanishini tushuntirish orqali o'smir yoshlarni, o'z-o'zini anglashga, tahlil qilishga va tarbiyalashga o'rgatish.

Kalit so'zlar: *psixologik, jinsiy balog'at, ruhiy, yetuklik, o'smir yoshlar, o'zgarishlar, akseleratsiya, individual, inqiroz.*

KIRISH

Inson umrining o'smirlik bosqichida asosan ikkita xarakterli jihati farqlanadi. Uning bittasi- kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi-o'smirning oilada va maktabda e'tibordan chetda qolishi, shu ikki jihat katta yoshdagi odamlarning e'tiboridan tashqari, o'z oqimida, maqsadga muvofiq tarzda kechadigan bo'lsa, oqibatda tarbiyasi qiyin deb ataluvchi yoshlar paydo bo'lishiga olib keladi.

5-8- sinf o'quvchilari o'smir yoshdagi shaxs deb yuritiladi. Bu davr 2 ga ajratiladi.

- 11-12 yosh davri;
- 14-15 yosh davri;
- „O'tish davri“, „Inqiroz davri“, „Pubertat davri“, „Tarbiyasi qiyin davri“, „Murakkab davri“ deb nomlanadi.
- Akseleratsiya ham katta ahamiyat kasb etadi.
- Psixologik, psixofiziologik va ijtimoiy omillarga bog'liq.

O'smirlar asta-sekin o'zini katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirlarda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyasi yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta moslashtira boshlaydi. O'smir o'z huquq doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi.

O'smir yosh davridagi o'zgarishlar quyidagi nomlar bilan farqlanadi:

1. Tarbiyasi qiyin, xotirasi past, diqqatining ko‘lami tor, beqaror, agressiv;
2. Deviant xulqli bolalar borliq, nizoli oilalarda shakillanadi;
3. Asotsiallik ko‘chaga yo‘nalgan bolalar;
4. Delikvent xulqli bola-oilasida mahkum qilgan shaxslar bilan munosabatlar asosida yuzaga keladi;
5. Nuqsonli bolalar- jismoniy nuqsonlarga ega.

Anatomo-fiziologik xususiyatlari. Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o‘smir organizmida sifat jihatidan o‘zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o‘g‘il bolalarda 13-15 yoshda bo‘lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo‘ladi, o‘smirning tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi, muskullar massasi va muskul kuchi o‘sadi, bu holat jinsiy yetilishning oxriga borib jadallashadi. Ichki organlar xususan yurak, ba‘zan yurak qon tomir sistemasida patologik o‘zgarishlar yuz beradi. Tashqi olat, urug‘don va urug‘ hujayralari, qin tuxumdon va tuxum hujayralariga bir qadar rivojlanishida jadalliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘smirlar muammosiga e‘tiborni kuchaytirib tarbiyasiga befarq bo‘lmaslik kerak. O‘smirlar muammosiga e‘tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) Fan va texnika rivojlanishi natijasida, madaniyat, san‘at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning o‘zgarayotganligi;
- 2) Ommaviy axborot ko‘lamining kengayishi tufayli o‘smirlar ongliligi darajasining ko‘tarilganligi;
- 3) O‘g‘il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat, fan va texnika rivojlanishi natijasida ijtimoiy qonunlaridan, tarixdan yetarlicha xabardorligi;
- 4) Akseleratsiya (jismoniy va aqliy kamoloti jadallashagani);
- 5) O‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy siyosiy, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik tarbiyasiga alohida yondashish zarurligi;
- 6) Oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 7) O‘quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o‘zini-o‘zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

Bularning barchasi yoshlarning keng imkoniyatlardan foydalanish yo‘riqnomasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘smirlik davri-- Insonni bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi, o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi omildir. Shu bilan birgalikda o‘smirlik faoliyati natijasi natijasi haqida bir necha olimlar fikr bildirishgan, xususan:

Biogenetik yoʻnalish vakillari S. Call va Z. Freyd bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblaydi. Amerikalik antropologlar M. Mid va R. Benedikt oʻsmirlik inqiroziy ijtimoiy munosabatlarning natijasi deb qarashadi.

Xarakter asentuatsiyasi- K. Leonhard tomonidan kiritilgan tushuncha boʻlib, xarakter baʼzi sifatning yorqin ifodalanganligining namunasidir. Xarakter aksentuatsiyasini bilish oʻsmirlarga individual yondashish, kasbga yoʻnaltirish kabilarda zarurdir. Oʻz-oʻzini baholash- shaxsning boshqalar bilan taqqoslash va refleksiya natijasida oʻz-oʻzini baholash murakkab va oʻzgaruvchan boʻlib, shaxs strukturasida katta oʻrin tutadi.

Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari oʻsmirlik davrini baholashda insonga azaldan berigan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan oʻz mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish goʻyoki hudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo boʻlishga, atrof muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossiz hisoblab, oʻsmirda imkoniyat bilan talabchanlik oʻrtasidagi kelishmovchilik, oʻzini koʻrsatishga moyillik va oʻz ichki dunyosiga qiziqishning namoyon boʻlishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar. Amerikalik K. Kulon oʻsmirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, oʻsmirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degisilgari suradi. Uning fikricha oʻsmirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy kategoriya mavjud boʻlib, ular:

1. Emansipatsiya (kattalar taʼsiridan qutilish);
2. Mustaqillikka erishish;
3. Hayotiy yoʻli va kasb- hunar tanlashda jiddiy munosabatda boʻlish zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni oʻzlashtirishdan iboratdir.

Bola yuqoridagi muammolarga eʼtibor bermas ekan, oʻsmirlik davri qancha boʻlishidan qatʼiy nazar, u bolaligicha qolaveradi. Oʻsmir oʻzini nazorat qilmas ekan bu borada trio yoʻldan adashishi muqarrar boʻlib qoladi.

XULOSA

Oʻsmir yoshi dunyo qarash , eʼtiqod, prinsip, oʻzlikni anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakillanadigan davr hisoblanadi. Oʻsmir ilayotgan sari unda „Ideal Men”, „Axloqiy Men”, va „Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, eʼtiqod va boshqalar shakillana boradi, undagi oʻzi toʻgʻrisidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror boʻlib qoladi. Oʻsmir oʻz faoliyatini muayyan prinsip va shaxsiy nuqtai-nazari asosida tashkil qila boshlaydi. Oʻsmir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Oʻsmirlarning koʻpchiligi qatʼiyatlilik, kamtarlik, magʻrurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi maʼnaviy, axloqiy tushunchalarni toʻgʻri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror ilmiy qarash tarkib topadi, shular zaminida

axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda bir soʻz bilan aytganda oʻsmirlik katta hayotga qoʻyilgan birinchi qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T. 2004.
2. Yartsev D.V. Zamonaviy oʻsmirlarni ijtimoiylashtirishning xususiyatlari, 1999- yil.
3. Gipheneiv Yu. B. Bola bilan suhbat. Qanday?-3- tuzatilgan va toʻldirilgan-X drayveri :.Chero, 2002.
4. Jumanazarov Yo. Youth and pedagogical psychology. Methodical complex Namangan 2009. 72-80-153-160.b
5. Маклаков А.Г. Общая психология. Учебник для вузов. С. Пб. 2008. – 283 с.